ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 5

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 5

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

TARA KAMPBELL MITTI HIKOYALARINING ZAMONAVIY KITOBXONLARGA TA'SIR DOIRASI

Xajiyeva Feruza Melsovna
Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi professori Filologiya fanlari doctori (DSc), O'zbekiston
E-mail: f.m.xajiyeva@buxdu.uz
Sharipova Parvina Shuxrat qizi
Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi, magistranti
O'zbekiston
E-mail: Psharipova55@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tara Campbellning mitti hikoyalari (flash fiction)ning zamonaviy kitobxonlarga ko'rsatayotgan ta'sir doirasi tahlil qilinadi. Muallifning qisqa, ammo mazmunan chuqur asarlari bugungi tezkor axborot oqimi sharoitida o'quvchilarning diqqatini jalb etish, ularni fikrlashga undash hamda badiiy idrokni rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, maqolada mitti hikoyalarning ixchamlik, ramziylik va emotsional ta'sir kuchi orqali zamonaviy adabiyotdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida Tara Kampbell ijodining o'ziga xos uslubi, mavzu tanlovi va o'quvchi ongiga ta'sir mexanizmlari misollar asosida tahlil qilinadi. Natijada, mitti hikoyalar bugungi kitobxonning estetik ehtiyojlarini qondirishda muhim vosita ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Tara Kampbel, mitti hikoya, zamonaviy adabiyot, badiiy ifoda, minimalizm, qisqa shakl, badiiy ta'sir, adabiy janr.

Abstract. This article analyzes the impact of Tara Campbell's flash fiction on modern readers. The author's short yet deeply meaningful works are examined in terms of their ability to capture readers' attention in today's fast-paced information environment, encourage critical thinking, and enhance literary perception. The article also highlights the significance of flash fiction in contemporary literature through its brevity, symbolism, and emotional intensity. In the course of the study, the distinctive style of Tara Campbell's творчество, her choice of themes, and the mechanisms of influencing the reader's consciousness are analyzed through examples. As a result, it is concluded that flash fiction serves as an important tool in satisfying the aesthetic needs of today's readers.

Key words: Tara Campbell, flash fiction, contemporary literature, artistic expression, minimalism, short form, literary impact, literary genre.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние флеш-фикшн (коротких рассказов) Тары Кэмпбелл на современного читателя. Краткие, но

ISSN 3030-3907

содержательно глубокие произведения автора рассматриваются с точки зрения их способности привлекать внимание в условиях стремительного информационного потока, побуждать к размышлению и развивать художественное восприятие. Также в статье раскрывается значение флеш-фикшн в современной литературе через такие характеристики, как лаконичность, символичность и эмоциональная выразительность. В ходе исследования на примерах анализируются особенности творческого стиля Тары Кэмпбелл, выбор тем и механизмы воздействия на сознание читателя. В результате делается вывод о том, что флеш-фикшн является важным средством удовлетворения эстетических потребностей современного читателя.

Ключевые слова: Тара Кэмпбелл, мини-рассказ, современная литература, художественное выражение, минимализм, короткая форма, литературное влияние, литературный жанр.

KIRISH.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda inson hayot sur’atining keskin oshishi adabiyotga bo‘lgan munosabatni ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Bugungi kunda kitobxonlar qisqa vaqt ichida katta ma’no va estetik zavq bera oladigan asarlarga ko‘proq murojaat qilmoqda. Shu jihatdan mitti hikoya (flash fiction) janri zamonaviy adabiy jarayonda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu janrning asosiy xususiyati uning ixchamligi, siqilgan mazmuni va kuchli emotsional ta’sirga egaligidir.

Mitti hikoyalar o‘zining qisqaligiga qaramay, murakkab g‘oyalarni ifoda etish, o‘quvchini fikrlashga undash va tasavvur doirasini kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar keng rivojlangan davrda bunday asarlar tez tarqalishi va keng auditoriyani qamrab olishi bilan ajralib turadi. Natijada, flash fiction nafaqat adabiy tajriba shakli, balki zamonaviy kitobxonning estetik ehtiyojlariga javob beruvchi muhim vositaga aylanmoqda.

Amerikalik yozuvchi Tara Campbell mitti hikoya janrining yetuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari qisqa hajmda chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmunni ifodalashi bilan e’tiborga loyiqdir. Muallif o‘z ijodida inson ruhiyati, jamiyatdagi o‘zgarishlar va ekologik muammolar kabi dolzarb mavzularni yoritadi. Uning hikoyalari o‘quvchida nafaqat estetik zavq uyg‘otadi, balki uni mulohaza yuritishga, yashirin ma’nolarni anglashga undaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi Tara Campbell mitti hikoyalarining zamonaviy kitobxonlarga ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil qilish, shuningdek, ushbu janrning bugungi adabiy jarayondagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat. Tadqiqot

ISSN 3030-3907

davomida muallifning uslubiy xususiyatlari, mavzu tanlovi hamda o‘quvchi ongiga ta’sir mexanizmlari ilmiy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY QISM.

Zamonaviy adabiy jarayonda mitti hikoya janri inson ruhiyati va jamiyatdagi axloqiy muammolarni ixcham shaklda yoritish imkoniyati bilan alohida e’tiborni tortmoqda. Ushbu janr vakillaridan bo‘lgan Tara Kampbell ijodida mitti hikoyalar nafaqat estetik-badiiy qiymatga, balki chuqur tarbiyaviy-axloqiy mazmunga ham ega. Muallifning hikoyalari zamonaviy o‘quvchining axloqiy tafakkurini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tara Kampbell mitti hikoyalarida axloqiy muammolar ko‘pincha kundalik hayotga xos oddiy vaziyatlar orqali ifodalanadi. Biroq bu soddalik tashqi ko‘rinishdangina iborat bo‘lib, hikoyalar ichki mazmun jihatidan murakkab axloqiy ziddiyatlarga asoslanadi. Muallif insoniy fazilatlarni didaktik yo‘l bilan emas, balki **badiiy vaziyat va psixologik holatlar orqali ochib beradi.** Masalan, ayrim hikoyalarda qahramonning boshqalarga nisbatan befarqligi yoki loqaydligi kichik detal orqali tasvirlanadi. Qahramon bir qarashda arzimas bo‘lib tuyulgan qaror qabul qiladi, biroq hikoya yakunida ushbu qarorning axloqiy oqibatlari ochib beriladi. Bu usul o‘quvchini **vijdon, mas’uliyat va insoniy burch** kabi tushunchalar ustida mushohada yuritishga undaydi. Masalan, muallif ayrim hikoyalarda ochiq xulosa bermaydi. Hikoya kutilmagan yoki ochiq yakun bilan tugaydi. Bu esa o‘quvchining **mustaqil fikrlash qobiliyatini** rivojlantiradi va uni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tahlilchi sifatida shakllantiradi. Avvalo, Tara Kampbell hikoyalarida jamiyatning shaxs ongiga o‘tkazadigan bosimi ochib beriladi. Kundalik hayotda inson o‘zini erkin his qilayotgandek ko‘rinsa-da, ijtimoiy qoidalar, takrorlanadigan vazifalar va mexanik turmush tarzi uni asta-sekin shaxs sifatida so‘ndirib boradi. Masalan, muallif qahramonlarini ko‘pincha gavjum muhitda yolg‘iz, sukut ichida yashayotgan obrazlar sifatida tasvirlaydi. Bu holat o‘quvchini jamiyat ichida insoniy qadr-qimmatni yo‘qotmaslik, shaxsiy “men”ni asrash zarurligi haqida o‘ylashga majbur etadi. Ikkinchidan, Kampbell mitti hikoyalari o‘quvchini o‘z ichki dunyosiga e’tibor bilan qarashga chaqiradi. Qahramonlarning ruhiy parchalangan holati, g‘alati va ba’zan mantiqqa zid xatti-harakatlari orqali muallif zamonaviy insonning ichki iztiroblarini aks ettiradi. Bu jihat o‘quvchida empatiya tuyg‘usini rivojlantiradi, boshqalarning ichki kechinmalarini tushunishga, inson ruhiyatiga befarq bo‘lmaslikka o‘rgatadi. Shunday qilib, hikoyalar axloqiy jihatdan insonparvarlik va hamdardlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Tara Kampbell ijodida begonalashuv muammosi muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar jamiyat ichida yashagan holda ham o‘zlarini begona his qiladilar. Bu holat zamonaviy o‘quvchi uchun ogohlantiruvchi ahamiyat kasb etadi: texnologiyalar va tezkor hayot

ISSN 3030-3907

sharoitida insoniy munosabatlarning sovuqlashuvi, muloqotning yetishmasligi jiddiy axloqiy muammolarga olib kelishi mumkin. Shu orqali muallif o‘quvchini insoniy aloqalarni qadrlash, samimiylik va ruhiy yaqinlikni saqlashga da’vat etadi. Bundan tashqari, Tara Campbell hikoyalarida identitet masalasi ham axloqiy tarbiya nuqtayi nazaridan muhimdir. Shaxs jamiyat talablariga ko‘r-ko‘rona moslashar ekan, o‘zligini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Flash fiction janrining qisqa va parcha shakli aynan mana shu identitetning parchalangan holatini ramziy tarzda ifodalaydi. Bu esa o‘quvchiga o‘z hayotini tanqidiy baholash, “men kimman?” degan savolni ongli ravishda qo‘yish zarurligini eslatadi. Masalan, Angels and Blueberries hikoyasida real voqelik bilan g‘ayritabiiy tasvirlar uyg‘unlashadi. Farishtalar obrazining kundalik, oddiy vaziyatlar bilan yonma-yon tasvirlanishi insonning kundalik hayotda yaxshilik va rahm-shafqatni unutib qo‘yishini ramziy ifodalaydi. Blueberries (ko‘k mevalar) kabi oddiy detal hayotning mayda, ammo mazmunli lahzalariga e’tibor qaratish zarurligini eslatadi. Axloqiy jihatdan bu hikoya o‘quvchini moddiylikdan ustun bo‘lgan ruhiy qadriyatlarni anglashga, oddiy hayotda ham mehr va insonparvarlikni ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Yana bir mitti hikoyasi “In the Tearoom” hikoyasida choyxona – an’anaviy muloqot va osoyishtalik joyi bo‘lishiga qaramay, qahramonlar o‘zaro sovuq va begona holatda tasvirlanadi. Bu joy jamiyatning tashqi tomondan tartibli, ammo ichki tomondan bo‘sh va hissiz holatini ifodalaydi. Mazkur asar orqali Tara Kampbell: tashqi madaniyat ichida yashiringan ichki bo‘shliqni, samimiy muloqot yetishmasligining axloqiy oqibatlarini ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘quvchi ushbu hikoya orqali insoniy munosabatlarda beparvolik va sukut ham axloqiy muammo ekanini anglaydi. Cold Comfort hikoyasida “tasalli” tushunchasi kinoyaviy ma’noda qo‘llanadi. Qahramonga berilayotgan dalda va g‘amxo‘rlik yuzaki, sovuq va mexanik bo‘lib, haqiqiy ruhiy yordam vazifasini bajarmaydi. Bu jamiyatda insonning ruhiy ehtiyojlari e’tibordan chetda qolayotganini ko‘rsatadi. Tarbiyaviy jihatdan hikoya o‘quvchini soxta hamdardlikni tanqidiy baholashga, haqiqiy mehrning faqat so‘zda emas, amal va e’tiborda namoyon bo‘lishini anglashga o‘rgatadi. “Midnight at the Organporium” asarida inson tanasi buyumlashgan, ehtiyot qismlar kabi ko‘rib chiqiladigan makon – “organporium” orqali jamiyatning insonni biologik obyekt sifatida qabul qilishi keskin tanqid qilinadi. Bu yerda shaxs o‘z tanasi va “men”idan ajralgandek tasvirlanadi. Axloqiy nuqtayi nazardan bu hikoya inson hayotining qadrini faqat foydalilik bilan o‘lchash xavfini, shaxsiy daxlsizlik va insoniy qadr-qimmat masalasini o‘rtaga qo‘yadi.

Zamonaviy o‘quvchi ushbu asar orqali texnologiya jamiyatida insoniylikni yo‘qotmaslik mas’uliyatini his qiladi. Shuningdek, Kampbellning hikoyalarida

ISSN 3030-3907

tilning soddaligi va obrazlarning ixchamligi kitobxon uchun murakkab g‘oyalarni oson qabul qilish imkonini yaratadi. “Angels and Blueberries”dagi ramziy obrazlar yoki “Yarn Galleon”dagi metaforik tasvirlar o‘quvchining tasavvurini kengaytirib, har bir kitobxon uchun individual ma’no hosil qiladi. Bu holat adabiy matnning ko‘pqatlamli talqin qilinishiga olib keladi. Bundan tashqari, Kampbell ijodida zamonaviy jamiyatning ruhiy holati - yolg‘izlik, tezkor hayot ritmi va ichki izlanishlar kabi mavzular seziladi[15]. Bu esa kitobxonlarda o‘z hayoti bilan bog‘liq refleksiya (o‘zini tahlil qilish) jarayonini kuchaytiradi. Ayniqsa, “In the Tearoom” hikoyasidagi sokin, lekin chuqur psixologik muhit o‘quvchini ichki tinchlik va tashqi dunyo o‘rtasidagi muvozanat haqida o‘ylashga undaydi. Umuman olganda, Tara Kampbellning mitti hikoyalari nafaqat badiiy tajriba, balki kitobxon ongini kengaytiruvchi va uni faol fikrlashga undovchi adabiy jarayon sifatida baholanadi.

Zamonaviy adabiy jarayonda mitti hikoya janri nafaqat yangi badiiy shakl sifatida, balki o‘quvchi tafakkurini o‘zgartiruvchi jarayon sifatida ham alohida e’tibor talab etadi. Ushbu janrning asosiy xususiyati qisqa hajm orqali maksimal ma’no yuklash kitobxon bilan o‘ziga xos kommunikativ munosabatni shakllantiradi. An’anaviy hikoya yoki romanlarda o‘quvchi voqeani bosqichma-bosqich qabul qilsa, mitti hikoyada u darhol markaziy vaziyat bilan to‘qnashadi. Bu esa o‘quvchi ongida tezkor, lekin chuqur kognitiv jarayonlarni ishga soladi. Qisqa matn o‘quvchini ortiqcha tafsilotlardan xoli holda asosiy g‘oya bilan yuzlashtiradi va natijada idrok jarayoni intensivlashadi. Mitti hikoya janrining eng muhim xususiyatlaridan biri — bu o‘quvchi va matn o‘rtasidagi interaktiv aloqaning kuchayishidir. Tara Kampbell ijodida bu ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, uning hikoyalarida ko‘plab voqealar to‘liq izohlanmaydi.

Qahramonlarning motivatsiyasi, voqea sabab-oqibatlari ko‘pincha yashirin qoladi. Bu esa o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol talqin qiluvchiga aylantiradi. Natijada, har bir kitobxon bir xil matndan turlicha ma’no chiqaradi. Bu esa mitti hikoyaning ko‘p qatlamli interpretatsiya imkoniyatini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Kampbell hikoyalari zamonaviy adabiyotda interaktiv matn sifatida qaraladi. Kampbell hikoyalarida begonalashuv muammosi markaziy o‘rin tutadi. Zamonaviy jamiyatda inson texnologiyalar orasida, tezkor hayot ritmida, ijtimoiy bosim ostida o‘zligini yo‘qotish xavfi bilan yuzlashadi. Muallif bu holatni ko‘pincha ramziy obrazlar orqali beradi. Qahramonlar ko‘pincha gavjum muhitda yolg‘iz, muloqot ichida sukutdajamiyat ichida begona sifatida tasvirlanadi. Bu esa

[15] Thomas B. Fictional Dialogue. – Lincoln: University of Nebraska Press, 2012.

ISSN 3030-3907

o‘quvchiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi va uni o‘z hayoti haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Kampbell ijodida metafora asosiy badiiy vosita hisoblanadi. Oddiy predmetlar chuqur ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, ip hayot va bog‘liqlik, kema inson taqdiri, farishtalar insoniylik. Bu metaforalar o‘quvchi tafakkurini faollashtiradi. Har bir obraz turlicha talqin qilinishi mumkin, bu esa matnning ko‘p qatlamli bo‘lishini ta’minlaydi. Tara Kampbell hikoyalari aynan shu jihat bilan ajralib turadi. Uning asarlarida voqelik qisqa, ammo zich shaklda beriladi va bu o‘quvchini faol interpretatorga aylantiradi. O‘quvchi matnni faqat o‘qimaydi, balki uni “to‘ldiradi”, “kengaytiradi” va o‘z tajribasi bilan boyitadi. Tara Kampbell mitti hikoyalarining kitobxonlarga ta’siri, avvalo, ularning kognitiv (tafakkurga oid) xususiyatlari bilan bog‘liq[16]. Flash fiction qisqa shaklda bo‘lishiga qaramay, murakkab ma’nolarni o‘zida mujassam etgani sababli o‘quvchi matnni tez o‘qiydi, ammo uni uzoq vaqt davomida tafakkurida qayta ishlaydi. Kampbell hikoyalarida psixologik tasvirlar kuchli bo‘lgani sababli o‘quvchi qahramonning ichki holatini “his qiladi”. Bu esa empatiya tuyg‘usini rivojlantiradi. Masalan, yolg‘iz qahramonlar o‘quvchida achinish hissini uyg‘otadi, ruhiy iztirob ichki hamdardlikni kuchaytiradi, begonalashuv umumiy insoniy tajriba sifatida qabul qilinadi. Bu jarayon ayniqsa zamonaviy jamiyatda muhim, chunki texnologiyalar fonida insoniy tuyg‘ular zaiflashib bormoqda.

Tara Kampbell hikoyalari esa aksincha, insoniy sezgirlikni qayta uyg‘otadi. Tara Kampbell hikoyalarida begonalashuv (alienation) muammosi markaziy o‘rin tutadi va bu o‘quvchilarga kuchli ta’sir qiladi. Masalan, gavjum joyda yolg‘izlik, muloqotsizlik, ichki bo‘shliq. Bu holatlar deyarli har bir zamonaviy inson tajribasiga yaqin. Shu sababli kitobxon qahramon bilan o‘zini qiyoslaydi, o‘z hayotidagi o‘xshash holatlarni eslaydi, ichki holatini qayta anglaydi. Bu esa adabiyotning terapevtik (ruhiy davolovchi) funksiyasini yuzaga chiqaradi. Kampbell hikoyalarida ramzlar muhim rol o‘ynaydi va bu ramzlar o‘quvchiga bevosita emas, balki bilvosita ta’sir qiladi. Masalan, farishtalar insoniylik va mehr timsoli, ko‘k mevalar oddiy hayot qadri, organporium insonning buyumlashuvi. Ramzlar o‘quvchining tasavvurini ishga soladi va har bir kitobxon uchun alohida ma’no hosil qiladi. Bu esa ta’sir doirasini kengaytiradi. Kampbell asarlarining yana bir muhim ta’siri bu **ramziy tafakkurni rivojlantirish**dir. Uning hikoyalarida oddiy predmetlar va voqealar chuqur metaforik ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, “Yarn Galleon” hikoyasidagi ip obrazini turli o‘quvchilar turlicha talqin qilishi mumkin. Bu esa matnning ko‘p qatlamli ekanini va har bir kitobxon uchun

[16] Thomas B. Fictional Dialogue. – Lincoln: University of Nebraska Press, 2012.

ISSN 3030-3907

individual ma’no hosil bo‘lishini ta’minlaydi. Shu orqali o‘quvchining tasavvur doirasi kengayadi. Flash fiction janrining yana bir muhim xususiyati qisqa shaklda kuchli emotsional ta’sir yaratishdir. Kampbell hikoyalarida bu ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Hikoya qisqa bo‘lsa-da, undagi dramatik vaziyat, keskin burilish yoki noaniq yakun o‘quvchida uzoq davom etuvchi emotsional rezonans hosil qiladi. Bu holat psixologik jihatdan shunday izohlanadiki, inson tugallanmagan yoki noaniq vaziyatlarni ongida davom ettirishga moyil bo‘ladi. Bundan tashqari, Kampbell hikoyalari zamonaviy o‘quvchi uchun dolzarb bo‘lgan ijtimoiy muammolarni yoritadi. Texnologiyalar rivoji, insonlar o‘rtasidagi muloqotning kamayishi, ijtimoiy bosim va shaxsiy erkinlik muammolari muallif asarlarida o‘z aksini topadi. Bu esa o‘quvchiga o‘z davrining muammolarini anglash va ularga nisbatan munosabat bildirish imkonini beradi. Kampbell ijodining yana bir muhim jihati uning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatidir. Uning hikoyalari o‘quvchilarda:

- empatiya
- axloqiy ong
- tanqidiy fikrlash
- mustaqil xulosa chiqarish

kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu sababli, bu hikoyalar nafaqat adabiy, balki pedagogik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim jihat Kampbell hikoyalarining individual talqin imkoniyatidir. Har bir o‘quvchi o‘z tajribasi, dunyoqarashi va ruhiy holatiga qarab hikoyani turlicha anglaydi. Bu esa adabiy matnni universal va ko‘p qatlamli hodisaga aylantiradi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, mitti hikoyaning kuchli ta’siri uning tugallanmaganligi va ochiq yakuni bilan bog‘liq bo‘lib, inson ongi tugallanmagan voqealarni davom ettirishga moyil bo‘lgani sababli, hikoya tugaganidan keyin ham o‘quvchi uni ongida qayta-qayta tahlil qiladi, bu esa uzoq davom etuvchi emotsional rezonansni yuzaga keltiradi.

XULOSA.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida insonning diqqat vaqti qisqarib borayotgan bir paytda, flash fiction janri aynan shu ehtiyojga moslashgan badiiy shakl sifatida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u qisqa vaqt ichida kuchli ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi, shu bilan birga o‘quvchini chuqur fikrlashga undaydi.

Umuman olganda, Tara Kampbell mitti hikoyalari zamonaviy o‘quvchi tafakkuriga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadigan badiiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, chunki ular nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki o‘quvchini fikrlashga, his qilishga, o‘z hayotini tahlil qilishga va ijtimoiy muammolarga ongli munosabat

ISSN 3030-3907

bildirishga undaydi, bu esa ushbu janrning zamonaviy adabiyotdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mitti hikoya (flash fiction) janri zamonaviy adabiy jarayonda muhim o‘rin egallab, bugungi kitobxonning estetik va intellektual ehtiyojlarini qondirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qisqa hajmiga qaramay, mazmunan chuqur va ko‘p qatlamli bo‘lgan bunday asarlar o‘quvchini faol fikrlashga undaydi, uning tasavvur doirasini kengaytiradi hamda badiiy idrokini rivojlantiradi. Tadqiqot davomida Tara Campbell ijodi misolida mitti hikoyalarning asosiy xususiyatlari ixchamlik, ramziylik va kuchli emotsional ta’sir zamonaviy o‘quvchi ongiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Muallifning o‘ziga xos uslubi, mavzu tanlashdagi dolzarblik hamda qisqa shaklda katta ma’no ifodalash mahorati uning asarlarini alohida ajratib turadi.

Shuningdek, flash fiction janri tezkor axborot oqimi sharoitida kitobxon e’tiborini jalb etish va uni saqlab qolishda ayniqsa dolzarb ekanligi kuzatildi. Bunday asarlar o‘quvchini qisqa vaqt ichida chuqur mulohazaga chorlab, unda estetik zavq bilan birga ichki tafakkur jarayonini ham faollashtiradi. Xulosa qilib aytganda, mitti hikoyalar nafaqat zamonaviy adabiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri, balki bugungi kitobxon bilan samarali muloqot o‘rnatish imkonini beruvchi badiiy vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Tara Campbell ijodi esa ushbu janrning imkoniyatlarini to‘liq namoyon etuvchi yorqin misollardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Campbell, T. *TreeVolution* / T. Campbell. - [S. l.] : Lillicat Publishers, 2018. - 215 p.
2. Campbell, T. *Circe’s Bicycle* / T. Campbell. - [S. l.] : LitPot Press, 2015. - 98 p.
3. Campbell, T. *Midnight at the Organporium: Stories* / T. Campbell. - [S. l.] : Unnerving, 2023. - 150 p.
4. Shapard, R., Thomas, J. *Flash Fiction Forward: 80 Very Short Stories* / R. Shapard, J. Thomas. - New York : W. W. Norton & Company, 2006. - 320 p.
5. Thomas, J., Shapard, R. *Flash Fiction International: Very Short Stories from Around the World* / J. Thomas, R. Shapard. - New York : W. W. Norton & Company, 2015. - 352 p.
6. Masih, T. *The Rose Metal Press Field Guide to Writing Flash Fiction* / T. Masih. - Brookline : Rose Metal Press, 2009. - 224 p.
7. Franklin, B. Flash fiction: an introduction // *Writing Short Fiction*. - New York : Pearson, 2012. - P. 85-102.
8. Hunter, A. *The Cambridge Introduction to the Short Story in English* / A. Hunter. - Cambridge : Cambridge University Press, 2007. - 180 p.

ISSN 3030-3907

9. Abrames, D. Flash fiction and the modern reader // *Journal of Modern Literature*. - 2018. - Vol. 41, No. 3. - P. 120-135.
10. Qarshiyev, B. Zamonaviy adabiyotda mitti hikoya janri // *Filologiya masalalari*. - Toshkent, 2021. - № 3. - B. 45-52.

ISSN 3030-3907